



Lutfillo MAMASAIĐOV,
University of Business and Science dotsent
E-mail: lutfillomamasaidov2@mail.ru
ORCID: 0009-0004-3573-6787

NamDU professori, s.f.d. N.Dexkanov taqrizi asosida

MAORIF SOHASIGA KOMMUNISTIK MAFKURANING TA'SIRI VA UNING OQIBATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada O'zbekiston SSRda maorif sohasida kommunistik mafkuraning ta'siri, uning mazmun mohiyati va ta'lim sohasi orqali ijtimoiy va iqtisodiy hayotga ta'siri, kommunistik mafkura sabab yuzaga kelgan o'quv dasturlari va darsliklarni siyosiy lashtirish, milliy qadriyat va ananalarni yo'q qilishga bag'ishlangan ideologik jarayonlarning kuchayish tahlil qilingan. Shuningdek, ruslashtirish siyosati, tarixiy bosim va milliy tarix jarayonlarini maktablarda bir yoqlama o'rgatish va uning oqibatlari yoritilgan. Hamda kommunistik siyosatning keyingi davrga bo'lgan ta'sirida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Kommunistik mafkura, maorif, darsliklar, ruslashtirish, pioner, komsomol.

СФЕРА ПРОСВЕЩЕНИЯ: ВЛИЯНИЕ КОММУНИСТИЧЕСКОЙ ИДЕОЛОГИИ И ЕЁ ПОСЛЕДСТВИЯ

Аннотация

В данной статье анализируется влияние коммунистической идеологии на сферу просвещения в Узбекской ССР, её сущность, а также воздействие системы образования на социально-экономическую жизнь общества. Рассматриваются процессы политизации учебных программ и учебников, возникшие под влиянием коммунистической идеологии, а также усиление идеологических кампаний, направленных на вытеснение национальных ценностей и традиций. Кроме того, освещаются политика русификации, историческое давление и одностороннее преподавание национальной истории в школах и их последствия. Также изучается влияние коммунистической политики на последующие исторические периоды.

Ключевые слова: коммунистическая идеология, просвещение, учебники, русификация, пионер, комсомол.

THE INFLUENCE OF COMMUNIST IDEOLOGY ON THE SPHERE OF EDUCATION AND ITS CONSEQUENCES

Annotation

This article analyzes the influence of communist ideology on the sphere of education in the Uzbek SSR, its essence, and the impact of the education system on the socio-economic life of society. It examines the politicization of curricula and textbooks caused by communist ideology, as well as the intensification of ideological processes aimed at eroding national values and traditions. The study also highlights the policy of Russification, historical pressure, and the one-sided teaching of national history in schools and their consequences. In addition, the influence of communist policy on subsequent periods is explored.

Keywords: communist ideology, education, textbooks, Russification, Pioneer, Komsomol.

Kirish. Sovet hokimiyati tashkil topgan vaqtdan to 80-yillarning so'ngiga qadar mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan uning mafkuralarini xalq orasida keng yoyish hamda uni qo'llab-quvvatlashning eng muhim sohalardan biri maorif tizimi hisoblangan. Maorif sohasi Sovet davlati uchun jamiyatni qayta tashkil etishda va ijtimoiy-siyosiy ongni barpo etishda eng yaxshi mafkuraviy qurol hisoblangan. Bu davrda ta'lim tizimi davlatning to'liq nazoratida bo'lib, ta'limning asosiy vazifasi ilm berishdan ko'ra, yangi tipdagi mafkuraga sodiq insonni tarbiyalash hisoblangan.

Shuning uchun ham kommunistik mafkurada maorif sohasining bo'g'inlari hisoblangan maktab, texnikumlar va oliy ta'lim muassalari kommunistik mafkurani targ'ib qiluvchi tuzulmalarga aylantirilgan. Hamda barchamizga ma'lum bo'lganidek, ta'lim muassalaridagi barcha adabiyotlar marksizm-leninizm g'oyalari asosida tashkil etilgan o'quv dasturlar va adabiyotlar asosida tuzilgan. Ayniqsa tarix, adabiyot va boshqa fanlar orqali kommunistik g'oyani o'quvchilar ongiga singdirish yuqori darajada bo'lgan. Maorif orqali mafkuraviy ta'sirni kuchaytirish uchun o'qituvchilar ham siyosiy jihatdan ishonchli kadrlar sifatida tayyorlandi va ular partiya topshiriqlarini bajaruvchi tarbiyachilar rolini bajarganlar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XX asr o'rtalarida O'zbekistonda maorif tizimining holati bo'yicha bugungi kunga qadar ko'plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Bulardan: Qodirov E.K. O'zbekiston umumta'lim maktablarining rivojlanish tarixidan deb nomlangan kitobida aynan urush yillarida maktab ta'limi sohasida amalga oshirilgan ko'plab islohotlar haqida so'zlashda bu kitob sovet davri 1979-yilda chop etilgan bo'lib, unda kommunistik qarashlar va maktab sohasidagi ayrim kamchiliklar haqida kam ma'lumotlar keltiriladi.

Прокофьева М. А. и др, "Народное образование в СССР" nomli 1967-yilda chop etilgan kitobida ham sovet davri ta'lim yuqori darajada maqtablab ushbu kitobda ham maktab sohasida sovetlar tomonidan yo'l qo'yilgan ko'plab masalalarga atroflicha to'xtalmagan.

Ro'ziqulov Sh.M. "O'zbekiston SSR ta'lim tizimidagi o'zgarishlar (1946-1991-yillar)" Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasida ham XX asr-yillari davrida kommunistik mafkuraning maktab ta'limi sohasiga ta'siri haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lsa-da, ammo kommunistik mafkuraning maorif tizimidagi ko'plab jihatlar ochib berilmagan.

Bundan tashqari mazkur mavzuni yoritishda "Sovet maktabi" jurnali va "O'qituvchilar" gazetasi ham muhim

ahamiyatga egadir. Ya'ni undagi maqolalardan mavzu doirasida ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, O'zbekiston milliy arxivining R-94, fondida maorif sohasiga bevosita a'loqadordir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot mavzusini yoritishda O'zbekiston SSRda maorif sohasida olib borilgan islohotlar kommunistik mafkura ta'sirida yuz berganligi va maktab ta'limidagi boshqaruv, ta'lim berish jarayonlari hamda darsliklarda milliy ananalar va qadriyatlar masalalarini yoritishda qiyosiy, tanqidiy va xronologik, pragmatik usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. XX asrning boshlaridan SSSR Kommunistik kompartiyasining maorif sohasida o'z maqsadlarini ro'yobga chiqarish maqsadida maktab o'quvchilari va yosh orasidan pioner (9-14 yoshdagi bolalar), komsomol (14-28-yoshdagi yoshlar) tanlab olinib, partiya tashkilotlari ta'lim muassasalariga chuqur singdirilib, bolalar va yoshlar hayotining barcha bosqichlari mafkuraviy nazorat ostiga olindi.

Dastlabki yillarda savodsizlikka qarshi kurashish, alifbo islohoti va ommaviy ta'lim jarayonlari tashqi tomondan ijobiy jarayon bo'lib ko'rinsa-da, ularning ichki mazmuni sovet mafkurasini ommaga tez va samarali yetkazishga xizmat qilgan. Shu tariqa, sovet hokimiyati maorifni nafaqat ijtimoiy taraqqiyot vositasi, balki jamiyat ongni boshqarish, vatanga sadoqatni shakllantirish va mavjud tuzumni mustahkamlashning eng ta'sirchan mexanizmi sifatida qo'llagan.

Masalan, o'rta maktabni tamomlagan o'quvchilar uchun 1963-yilda boshlab yangi o'quv predmedi "Jamiyatshunoslik" fani kiritilgan. Unga ko'ra bu predmedning asosiy vazifasi yoshlarda ilmiy dunyo qarash va kommunistik ongni shakllanirishda, siyosiy bilim asoslarini egallashda yordam berishdan iboratdir bo'lgan. SSSR yetakchisi N.C. Xrushchev yangi predmetni quyidagicha tariflab, biz yoshlarning kommunistik qurilishning eng muhim vazifalari bilan Marks, Engels va Leninning komunizm to'g'risidagi ta'minoti bilan chuqurroq tanishishmoqlarini istaymiz deya fikr bildiradi[1]. Yoki, 1947-yil 13-martda O'zbekiston SSR partiya yig'lishida Respublikamizning anchagina maktablarida o'qituvchilarning bilimlari yetarli darajada emas ayniqsa yarim yillik yakunda qishloq maktablarida bu holat sezilarli darajada, ayniqsa qishloq maktablarida o'quvchilarning o'zbek tili va adabiyoti, rus tili va tarix fanlaridan olgan bilimlarida jiddiy kamchiliklar bor. Hamda rus tilini o'rganish o'zbek yoshlarining oliy maktablarda ma'lumot olishlari va SSSR xalqlarining umumiy madaniyatini birlikda rivojlanish uchun zaruriy shartdir.

Maktab bolalariga ijtimoiy rivojlanish qonunlarini anglash va sovet hukumatining siyosati adolatli ekanligiga mustahkam ishonch hosil qilishni singdirish kerak, u bolalarni kundalik ishlarida, maktab kollektivida, oilada va jamoat ichida kommunistik ahloq qoidalariga amal qilishga o'rgatish kerakligi[2] ta'kidlangan.

Shuningdek, "Kommunistik tarbiya"ni kuchaytirish, bolalarni maktabga kengroq jalb qilish maqsadida maktab-internatlar tashkil etildi, ba'zan ota-onalar va jamoatchilik hisobidan bolalarni uzoqdan o'qish joyiga kolxoz va sovxozlar, korxonalar va muassasalardan transportda olib borish. Masalan, 1959-1960-o'quv yili boshiga kelib Oxunboboyev tumanidagi Farg'ona qishloq xo'jaligi kooperativida maktab-internat qurildi.

Toshkent viloyatining o'quv, turar-joy va maishiy xonalari va xonadonlari majmuasi bo'lgan o'qituvchilar 1965-1966- o'quv yiliga kelib poytaxt viloyatidagi 97 maktabda maktab-internatlar tashkil etildi, 123 maktabda o'quvchilarni kundalik tashish tashkil etildi, har kuni 2000 dan ortiq bola tashildi. Hamda 19-sonli maktab ota-onalar qo'mitasi tashabbusi bilan Ohangaron tumanidagi mikrorayonda tizimli

tekshiruvlar tashkil etilib, bolalarni maktab ta'limiga qamrab olish jarayonlari yaxshilandi[3].

Bunday holatlarni namangan viloyatida ham ko'rish mumkin. Unga ko'ra o'quvchilar orasida ta'lim-tarbiya sifatini oshirishga qaratilgan 1965-yilda namangan shahar hududida 45 ta ota-onalar komitetlari va 15 ta ota-onalar universitetlari faoliyat yuritgan. Bundan ko'zlangan maqsad maktablarda o'quv-tarbiya ishlarini yaxshilash va o'quvchilarning bilim darajasini oshirishdan iborat edi. 1964-1965-o'quv yilida ota-onalar komiteti yordami bilan maktablarda 97,7 prosent o'zlashtirish va 98 prosent davomatga erishilgan. 1965-1966-o'quv yilida ushbu komitet a'zolari ta'lim-tarbiya faoliyatini yaxshilashga oid "oila bilan maktabning mustahkam aloqasi-bolaning yaxshi tarbiyalashning garovi", "oilada estetik tarbiya", "bolaning oiladagi yumushlari", kabi bir qancha aktual mavzularda leksiya va suhbatlar o'tkazishgan. Bularning natijasida shu yilning o'zida maktablardagi davomat 99-100 prosentga ko'tarilgan[4].

Mazkur yillarda yangi davr insonini tarbiyalash maqsadida Sovet davlati tarbiyaviy ta'sir vositalariga boy bo'lgan madaniy-ma'rifiy muassasalarning keng tarmog'ini - klublar, kutubxonalar, o'qish zallari, xalq teatrlari, badiiy havaskorlik jamoalarini - O'zbekistonning eng chekka qishloqlarigacha tashkil etilgan. 1965-yilda qishloq aholisi ehtiyojiga xizmat qilgan 1498 ta kutubxona, 1223 ta klub, 1085 ta o'qish zali va 2822 ta kinoqurilma faoliyat yuritgan[5].

Sovet hokimiyati respublikada soxta proletar baynalminalchilikni amalda kuchaytirish maqsadida ta'lim muassasalarida oldingi davrda bo'lgani kabi rus tilini va uning ahamiyatini o'lka xalqlari orasida keng yoyish ishlariga katta e'tibor qaratgan. Buning natijasida markazning (Ruslashtirish) kommunistik g'oyalari hamda maqsad muddolarini amalda namoyon etishga rus tili va adabiyoti muhim ahamiyat kasb etgan. Natijada, 60-yillarda o'zbek tili va adabiyoti, O'zbekiston tarixi, chet tillari, musiqa va qo'shiqchilik darslari hajmi keskin qisqardi va ular haftasiga o'quv rejada belgilanganidan 16,5 soatga kamayib ketdi. Ularning o'rnidagi soatlarni rus tili va adabiyoti fani bilan to'ldirdi.

Shuningdek, o'qituvchilar "XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida o'zbek-adabiy muhiti", "Milliy madaniy jarayonlar" to'g'risidagi mavzularda dars mashg'ulotlari o'tishi lozim bo'lgan soatlarda rus madaniyatining "progressiv" ahamiyatini ko'rsatib berishga majbur bo'lgan edilar. Natijada, boy va ko'hna o'zbek xalqi tarixini o'rganishga 52 soat ajratilgan holda boshlang'ich maktablarda rus tili va adabiyoti fani uchun 1600 soat ajratildi[6.97]. Buning natijasida maktab yoshidan boshlab barcha o'quvchilar sovet mafkurasini ta'sirida ulg'ayishga va unib o'sishga majbur bo'lgan.

Ushub holatni 1974-1975-o'quv yili holatiga e'tibor qaratsak O'zbekiston SSRda rus tili va adabiyoti fanini o'qitish oldingi yillardan ko'ra ancha rivojlangan. Masalan, bu yilda birinchi sinflarda rus tili va adabiyoti 144 soat, ikkinchi sinflarda 180 soat, uchunchi sinflarda 216-soat o'tilgan bo'lsa, ona tili darslari I-V sinflarda darslar rus tili va adabiyoti bilan umumiy soatlar bir-biriga yaqin bo'lsa, yuqori sinflarda 6-8 sinflar keskin farq qilgan. Ya'ni, rus tili va adabiyoti oltinchi sinflarda 180 soat, yettinchi sinflarda 180 soat, sakkizinchi sinflarda 216 soat o'tilgan bo'lsa, ona tili darslari oltinchi sinflarda 144 soat, yettinchi sinflarda 108 soat, sakkizinchi sinflarda 72 soat o'tilgan. Shuningdek, mazkur yilda tarix, geografiya, fizika, chet-tilli, biologiya kabu fanlar bir yilda 72 soat o'tilgan[7]. Bu esa respublika maktablarida rus tili va adabiyot fanining siyosiy jihatdan ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Darslar rus tilida olib boriladigan maktablarda esa rus tili va adabiyoti I-10-sinflarda haftasiga 84 soat yiliga 2772 soat dars mashg'ulotlari olib borilgan bo'lsa, keying o'rinda

matematika fani hisoblangan. Ushbu fan haftasi 60 soat yiliga esa 1980 soat o'tilgan. O'quv dasturida ona tili, matematika va tabiiy fanlarga alohida e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari, reja asosida sovet o'quvchisi matematika va tabiiy fanlar bo'yicha amerikalik o'quvchiga nisbatan ancha chuqurroq bilim olgan. Bundan tashqari matematika kursiga trigonometriya va astronomiya ham kiradi. Fizika va kimyo fanlarini o'rganish esa mos ravishda oltinchi va yettinchi sinflardan boshlanadi. Tabiiy fanlar hamda matematika "muhim fanlar" toifasiga kiritilgan[8].

Sakkiz yillik maktabning o'quv rejasida ta'lim va tarbiyaning turli yo'nalishlari yanada muvozanatli tarzda aks ettirilgan. Gumanitar fanlar (rus tili va adabiyoti, tarix, SSSR Konstitutsiyasi, chet tili) jami o'quv vaqtining 39,5% ini tashkil etadi (shu jumladan rus tili – 25,3%); tabiiy-fan va matematika fanlari (matematika, fizika, biologiya, geografiya) – 32,5%; mehnat ta'limi va ijtimoiy foydali ishlar – 15,3%; rasm chizish, musiqa va kuylash – 6,2%; jismoniy tarbiya – 6,5% tashkil etgan[9].

Yuqorida keltirganimizdek, Ukraina, Rossiya va boshqa hududlardan O'zbekistonga go'yoki malakali kadrlar yetkazib berish asnosida keltirilgan ko'plab rus tili fani o'qituvchilari amalda bu hududlarda ta'limni qo'llab-quvvatlash emas, balki sovet mafkurasi hamda ta'moyillarini yoyish muhim hisoblangan. Yaxshi tomoni esa 1960-yillarga kelib chetdan o'qituvchi kadrlar yetkazib berish ishlari ancha kamaygan.

Rus tilida ta'lim berish jarayonlari 1988-1989-o'quv yiliga kelganda O'zbekiston SSRdagi barcha o'quvchilarning 14 foizi rus tilida ta'lim oldi; har beshinchi maktabda rus tilidagi sinflar mavjud edi yoki ta'lim to'liq rus tilida olib borilar edi. O'zbekistonda rus tilining eng keng tarqalgan davri 1980-yillarning boshlariga to'g'ri keldi. Bu jarayonga 1979-yil may oyida Toshkent shahrida KPSS MK qarori bilan tashkil etilgan "Rus tili – do'stlik tili" nomli Butunittifoq ilmiy-amaliy konferensiya turtki berdi (unda mingga yaqin partiya xodimlari, tilshunolar va rus tili o'qituvchilari ishtirok etgan). Unda qabul qilingan, milliy respublikalarda, jumladan O'zbekistonda ham rus tilining mavqeini kuchaytirishga qaratilgan qarorlar sezilarli natijalar berdi: agar 1970-yilgi aholi ro'yxatiga ko'ra respublika fuqarolarining atigi 12 foizdan sal ko'prog'i rus tilini erkin bilgan bo'lsa, o'n yil o'tib – 1980-yilda – ularning ulushi ikki baravar oshdi[10].

Shuni alohida qayd etish zarurki, kommunistik mafkuraning asosiy maqsadi bolalarni ilm-marifaatli qilib tarbiyalash emas, balki ularni mamlakatning eng ishonchli mehnatkash insoni sifatida tarbiyalashga e'tibor qaratilgan. Bu borada qishloq maktablarining vazifasi ancha murakkab va mas'uliyatli hisoblangan. Qishloq o'quvchilari 12–14 yoshlaridan boshlab ijtimoiy mehnatga qatnasha boshlaydilar – ota-onalari bilan brigada va fermalardagi ishlarga yordamlashadilar. Katta yoshdagi o'quvchilar esa kolxoz va sovxozlardagi mehnatda ishtirok etadilar. Ma'lumki, 60-yillarda o'zbekistonda paxta yetishtirish tez rivoj topmoqda. Bunda yosh paxtakorlarning – maktab o'quvchilarining o'ziga xos ma'lum ulushi borligi, qishloq maktablarining pedagogik jamoalari buni yaxshi hisobga olishlari, o'quvchilarning

qishloq xo'jalik kasblariga ishtiyoq va qiziqishlarini oshirishlari, ularni mehnatsevar kishilar qilib tarbiyalashlari kerakligi ta'kidlanadi[11].

Buning natijasida maktab yoshlari orasida "mening mehnatim – respublikamning mehnati", "qishloq maktabi komsomoli", "har bir yosh mehnatkashga – o'rta ma'lumot" kabi vatanparvarlik harakatlarini rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy faoliyati umumlashtiriladi. Maktablardagi komsomol tashkilotlarning muhim yo'nalishlaridan biri respublika bo'yicha 711 ta komsomol-o'smirlar brigadalarining tashkil etilishi bo'lib, ular 1856 ta binolarni qurish va ta'mirlash ishlarida qatnashgan. To'qqizinchi va o'ninchi besh yilliklar davomida ular 5525 nafar o'quvchini jalb etgan holda 33 ta qurilish brigadasida faol ishtirok etgan[12].

Andijon viloyati Uchqo'rg'on tumanidagi o'n bir yillik maktab o'quvchisi, o'quvchilar brigadasi boshlig'i Dilbar Yusupovning vatanparvarlik va mehnat g'alabasining dong'i butun mamlakat bo'ylab yoyildi. Yosh paxtakor Dilbar Yusupova boshchilik qilgan brigada o'tgan yili gektaridan 43 sentnerdan paxta hosili olishga muvaffaq bo'ldi. U, kelgusi mavsumda 36 gektar yerga paxta ekish va gektaridan 45 sentnerdan hosil topshirish majburiyatini oldi. Bu, undagi mehnat faoliyatining ilk samarasi bo'lishi bilan, maktablar va o'quvchilar brigadalarining roli va ish unumdorligining yorqin timsolidir. Qishloq maktablaridagi o'quvchilar dalachilik brigadalarining ish unumdorligi yil sayin oshmoqda. Hozir respublika maktablari da 611 ta o'quvchi brigadasi bo'lib, unda 19000 dan ortiq komsomol, pioner va o'quvchilar ijtimoiy-foydali mehnat bilan shug'ullanmoqdalar. Bularga birkatib berilgan ekin maydonining umumiy miqdori 4591 gektarni tashkil etadi[13].

Maktab o'quvchilarini qishloq xo'jaligi ishlariga jalb etish ishlari 1974-yil holatiga e'tibor berilsa, o'quvchilar brigadasi tomonidan 42847 tonna paxta, 11525 tonna don, 10897 tonna meva, 26270 tonna poliz mahsulotlari va boshqa mahsulotlarni rejadan ortiqcha qilib bajarilgan bo'lsa, o'quvchilar ishlab chiqarish brigadalarida paxtadan tashqari boshqa mahsulotlardan ham yuqori hosil olganlar. Masalan, Xorazmda o'quvchilar brigadalari har bir gektardan 40 sentner, Andijon, Farg'ona, Namangan va Samarqand viloyatlarida 30 sentner paxta hosilini yetishtirgan[14].

Xulosa va takliflar. O'quvchilarning bu kabi ta'lim jarayonlarida ajralgan holda qishloq xo'jaligi ishlarida faol ishtiroki sovet mafkurasining o'z maqsadi yo'lida eng katta yutug'i desak mubolag'a bo'lmaydi. Yoki bu holatlar xx asr 30-yillarida boshlangan "jamoalashtirish" siyosatining amaldagi natijasidir.

Maktablarda kommunistik mafkurani o'quvchilar orasida yoyishga bag'ishlangan dars jarayonlarida yoki darsdan tashqari olib borilgan "kommunistik axloq, siyosiy axborotlar va ateistik targ'ibot tadbirlari" yosh avlod ongini shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Bu jarayon o'quvchilarni jamoaviylikka, mustaxkam intizom va davlatga sadoqat kabi jihatlarni rivojlantirgan bo'lsa-da, shaxsiy tashabbus va mustaqil fikrlashni ikkinchi darajaga tushirdi. Amalda esa haqiqiy "Sovet odamini" tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etdi.

ADABIYOTLAR

1. Мактабга янги предмет кирмоқда // Ўқитувчилар. 1963. –№ 2. –Б. 1.
2. ЎзМА. Р-94 фонд, 5-рўйхат, 4932-иш, 33-варак.
3. Ergasheva Y. A. Urushdan keyingi o'n yilliklarda O'zbekistonda maktab ta'lim islohoti tarixidan // "O'tmishga nazar" №1. 2024. –B. 16.
4. Абдуллаев Ф. Ота-оналар комитетлари мактабларимизга катта таянч // Наманган ҳақиқати, 1965. –№ 24. –Б.4
5. Худайбердиева Г.Х. Культура Узбекистана при советской власти (1960-1950-е годы на примере Сурхандарьи). "Экономика и социум" №1 (104)-1 2023. –Б. 483.
6. Ro'ziqulov Sh. M. O'zbekiston SSR ta'lim tizimidagi o'zgarishlar (1946-1991-yillar). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. –Andijon. 2025. –B. 97.

7. Ўзбекистон ССР бошланғич, саккиз йиллик ва ўрта умумий таълим мактабларининг 1974-1975-ўқув йили учун ўқув плани // Совет мактаби. 1974. –№ 36. –Б. 4.
8. Ross L. Some aspects of Soviet education // Journal of Teacher Education, 11(4), 1960. –P. 542.
9. Каирова И.А. Советская школа на современном этапе. “Издательство Академии педагогических наук РСФСР”. – Москва. 1961. –С. 61.
10. Арефье А.Л. Камышева С.Ю. Русский язык в республике Узбекистан: страницы истории и современность. “Alma mater”. Вестник высшей школы. 2023. №2. –С. 99.
11. Головачева Л.И. Қишлоқ аҳолисининг турмуш маданиятини оширишда халқ маорифининг роли // Совет мактаби. 1982. –№ 2. –Б. 13.
12. Ахмедов С.А. Роль комсомола и молодежи в дальнейшем развитии народного образования в Узбекистане (1971-1980 гг). Автореф. дисс... для к.и.н. –Т. 1987. –Б. 12.
13. КПСС XXII съезди ва мактаб // Совет мактаби. 1962. –№ 2. –Б. 6.
14. Қобилжонов О. Хазина ўқувчилар ишлаб чиқариш бригадалари илғорлари V республика ҳаёти ва меҳнат таълими ҳамда касб танлаш I республика конкурсидан // Ўқитувчилар. 1974. –№ 29. –Б. 2.